

Mumtoz Musiqalarni Yaratishda Bastakorlik Ijodiyoti



SCIENCE BOX

Shoira Umurzoqovna Norova

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

Jasurbek Jo'raqulovich Qurbonov

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Bastakor – mumtoz musiqa yo'nalishlarida, uslublarida badiiy asar yaratgan ijodkorlarga nisbatan qo'llanilib kelinadi. Tarix davomida bastakorlar, ya'ni musiqa ijodi bilan shug'ullangan ijodkorlar turli davrlarda va o'zgacha nomlar bilan atalib kelingan. Jumladan, «O'zbek va tojiklar – bastakor (shuningdek, ohangdon, navosoz va b.), zarbayjon, arman va turklar – oshiq, qozoq va qirg'izlar – oqin, kyuyshi, salsere kabi atamalar ishlatishadi». Bastakor iborasi negizida musiqa yaratuvchilik bilan bog'liq bir qator amallarni o'zida mujassam etgan turlar mavjud. Mohirlikka erishib, faqat o'z ijrosi va uslubida musiqa ijod etganlar ham uchraydi, (ayniqsa, hozirgi davrga kelib bu yo'nalish ancha ommalashgan.

Kalit so'zlar :

voha, mahalliy, lokal, uslub, maqom yo'llari, turkum, suvora, katta ashula, cholg'u yo'llari.

Bastakorlik ijodiyotida kuy bastalash bilan birga ushbu kasbning xususiyati bilan bog'liq yana bir qator jihatlarni aks etuvchi amallarni qamrab oluvchilar ham mavjud. Azaldan ushbu kasb egalari ham xalq musiqa ijodiyotida o'z o'rniga ega ekanligi musiqiy risolalarda bayon etilgan. Jumladan, A.Navoiy asarlarida zikr etilgan «lahnpardozi», «nag'mapardozi» so'zlaridir. Bastakorlikning turli an'analari asrlar osha ustoz-shogird an'analari negizida kamol topib kelgan. Faqat har bir davr o'z zamonasi va bastakorlik ijodiyotining rivojlanish bosqichlari darajasida bo'lganligi muqarrardir. Eng muhimi, bastakorlik faoliyatining o'ziga xos tarkibiy qismlari, ijrochilik ekanligidadir. Bastakorlik ijrochilik mezonini yaratib beruvchi omil bo'lsa, bastakorlik o'z o'rnida ijrochilik mezonlarini ta'minlovchi sifatida alohida ahamiyatga egadir. Ijrochilik jarayoni sozandalik va xonandalikdan iborat bo'lsa, uning zaminida barcha cholg'u dunyosi vositachi sifatida xizmat qiladi. Bastakorlikning o'zi ham ana shu jarayonlar, ya'ni ijrochilik va cholg'ular dunyosining rivojlanish jarayoni mevasidir. Bu jarayon har bir xalq, millat va elatlar doirasida shakllanib, milliy qadriyatlar asosida rivojlanib kelingan. Ma'lumki, o'zbek bastakorlik ijodi ham turli davrlar rivojini o'tagan va rivojlangan. Bastakorlikning keng qamrovliligi, keng ko'lamliligi, oddiy va marakkab jihatlar bilan sug'orilganligida o'ziga xos milliy an'analarni mujassam etgandir. O'zbekiston hududida o'zining local xususiyatlari doirasida 4 ta vohta mavjud bo'lib, o'ziga xos mahalliy uslublar bilan ajralib turadi. Bular Buxoro-Samarqand; Xorazm; Surxondaryo-Qashqadaryo va Farg'ona-Toshkent uslublaridir. Ko'p asrlar davomida rivojlanib, kamol topib kelgan o'zbek bastakorlik ijodi, avvalo, xalqimizning ma'naviy dunyosiga mos rivojlanish jarayonini o'tganligini e'tirof etish lozim. Buning negizida mukammal asarlar yaratilishi, ushbu sohada mahoratli bastakorlar yetishib chiqqanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, bastakorlik ijodining keng qamrovliligi hamda ijrochilik maliyoti bilan bevosita uyg'unligida soha keng ommalashib rivojlanganligini qayd etish mumkin. Bu, albatta, bastakorlik ijodining janr jihatidan keng qamrovlilikda, joy, makon va zamon an'analari asosida o'sib-boyib borishi hamda lokal xususiyatlarda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Natijada, har bir vohaning o'ziga xos lokal an'analari asoslangan mahalliy uslublari shakllanadi. Odatda, muayyan vohaning ijtimoiy hayoti doirasida yuzaga kelgan barcha xarakterli xususiyatlari, qadriyatlari va an'analari mahalliy darajada ifoda etilgan jarayon mahalliy uslub deb yuritiladi. Bu jarayon ko'proq vohalarning so'zlashuv tilida yaqqol namoyon bo'lib, odatga ko'ra sheva iborasi bilan yuritilib kelinadi. Bu jarayon musiqa va musiqiy an'analarda ham o'z ifodasini topganligini alohida e'tirof etish lozim. Bunga yorqin misol, bastakorlik ijodining eng mukammal ko'rinishi bo'lgan maqom va maqom yo'llarida yaratilgan musiqiy janrlardir. Chunonchi, har bir vohaning o'ziga xos musiqiy, ijroviy va ijodiy xususiyatlari mavjuddir. Buxoro bastakorlik ijodi musiqa an'analari yuzaga kelgan namunalar, ya'ni «Shashmaqom», o'zining mukammalligi, shaklan, tarkiban muayyan tizimga soslanganligi bilan o'zbek bastakorlik san'atida yetakchi o'rinni egallaydi. «Shashmaqom, – deb yozadi maqomdon olim I. Rajabov, – maqom janrining taraqqiy etilgan eng so'nggi shakli sifatida, bastakorlik san'atining va yuqoridagi musiqa risolalarida ko'rsatilgan kuy turi va shakllarining rivojlantirilishi natijasida yaratildi»¹. Xorazm mahalliy uslubi, avvalo, o'zining qadimiyligi bilan ahamiyat kasb etsa, mumtoz musiqa ijodiyotida yuzaga kelgan Xorazm maqomlari, dutor maqomlari, suvorlari bastakorlik ijodining yorqin namunalari sifatida o'zining vohaga xosligi va mukammalligini ko'rsatib turadi. Surxondaryo-Qashqadaryo vohalarining mahalliy musiqiy an'analari doston va termalar ijrochilik an'analari alohida o'rin egallagan. Farg'ona-Toshkent vohasining musiqiy an'analari ham boy va keng qamrovlidir. Ushbu vohaga

maqomlarga xos bo'lgan turkumlardan ashula va cholg'u turkumlari xosdir. «Toshkent-Farg'ona maqom shakllariga Bayot, dugoh husayniy, Chorgoh va Shahnozi- gulyor kiradi» – deb bayon etgan I.Rajabov. Shu bilan birga I.Rajabov, «Shashmaqom» tarkibidagi maqomlar asosida yaratilgan «Nasrulloiy», «Ajam», «Miskin» kabi Farg'ona-Toshkent ijro an'alarida mavjud ko'plab turkumli asarlar maqomlarga xosligini e'tirof etib o'tgan. Farg'ona-Toshkent maqomlari bilan bir qatorda, katta ashula hamda maqom yo'llariga xos cholg'u musiqasi rang-baranglikda shakllangan. Farg'ona vodiysi Marg'ilon, Qo'qon, Andijon, Namangan maktablari, maqom va katta ashula uslublariga xos local zonalarga boyligi bilan ajralib turadi. O'zbek bastakorlik ijodi, albatta, vohalarning o'ziga xos local xususiyatlari asosida shakllanib rivojlanganligi doimo e'tirof etiladi. Buni faqat bitta doira usulining o'zida ham ko'rish, anglash va idrok qilish mumkin. O'zbek ijro amaliyotida musiqaning o'lchov-ritmik jihatini ta'minlab turadigan usullar turli va rang-barangdir. Faqatgina, Usto Olim Komilov zikr etgan «Katta o'yin» usullar turkumining o'zida 49 ta xilma-xil usul mavjud. Xalq ijrochilik amaliyotida, faqat «Ufor» usulining 30 ga yaqin turlari qo'llanilib kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Норова Шоира Умрзаковна ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ДУХЕ УВАЖЕНИЯ К НАЦИОНАЛЬНЫМ ЦЕННОСТЯМ ПОСРЕДСТВОМ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ // Наука, техника и образование. 2021. №2-2 (77).
2. Shoirra Umrzoqovna Norova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI // Scientific progress. 2021. №5.
3. Norova Shoirra Umurzoqovna. (2021). METHODS OF PERFORMANCE BY MUSICAL INSTRUMENTS. European Scholar Journal, 2(9), 55-56.
4. Норова Шоира Умрзаковна, Хазратова Камола Нусратиллаевна РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ // Academy. 2021. №2 (65).
5. Норова Шойра Умрзаковна ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЛИЧНОСТЬ СТУДЕНТА // Вестник науки и образования. 2020. №21-2 (99).
6. Norova, S. U. "Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations." The American Journal of Social Science and Education Innovations 3.01 (2021): 441-445.
7. Норова, Ш., and Ф. Нуруллаев. "Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях." Вестник интегративной психологии 17 (2018): 295-299.
8. Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice SU Norova, T Mukhamedov - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020
9. Norova Shaira Umirzakovna Ways To Improve Learning Efficiency Using Innovative Technologies Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. №. 01. – С. 41-47.

10. Нуруллаев, Ф. Г. (2021). КОМПОЗИЦИОННЫЙ И ИСПОЛНИТЕЛЬСКИЙ ПРОЦЕСС В МУЗЫКЕ. *Scientific progress*, 2(4), 576-581.
11. Нуруллаев, Ф. Г. (2021). ИМПРОВИЗАТОРСКОЕ ТВОРЧЕСТВО В ХХ ВЕКЕ ПО СФЕРЕ МУЗЫКЕ. *Scientific progress*, 2(4), 582-587.
12. Нуруллаев, Ф. Г. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Academy*, (3 (66)), 48-50.
13. Нуруллаев, Ф. Г. (2021). СОДЕРЖАНИЕ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ НАРОДНЫМ ПЕСНЯМ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Academy*, (3 (66)), 48-50.
14. Норова, Ш. У., & Хазратова, К. Н. (2021). РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ. *Academy*, (2 (65)), 65-67.
15. Norova, Shoira Umrzoqovna. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING XUSUSIYATI VA TUZILISHI." *Scientific progress 1.5* (2021).
16. Gaybullaevich, N. F. THE ROLE OF FOLKLORE IN THE RAISING OF CHILDREN.
17. Nazarova S. M., Zaripov G. T. GENERAL PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED GRASS SOILS OF BUKHARA OAZIS AND WAYS TO IMPROVE THEM //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 3. – С. 66-69.
18. Tokhirovich, Z. G. (2021). Technology of preparation of composition from spinach pumpkin. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 424-429.
19. Islamovna M. D. The value of using the autocad program in the works of machine-building drawings for building fastening parts //Proceeding of The ICECRS. – 2019. – Т. 3.
20. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). ОСНОВЫ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ОБУЧЕНИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. *European science*, (2 (58)), 62-65.